

## BO`LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O`QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA AXBOROT KOMMUKATSION TIZIMLARDAN FOYDALANISH

*Ilyos Janizov*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, O'zbekiston  
ijanizakov@inbox.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bo`ljak kadrlarni elektron axborot muhitida malaka ko`nikmasini oshirish, kasbga yo`naltirilgan innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkil etish usul va uslublari qisqacha yoritib berilgan

**Kalit so`zlar:** Nazorat ishlari, vebinar, mustaqil ta`lim, masofaviy ta`lim olish metodlari, konsultatsiyalar, axborot texnologiyalar, malaka, ko`nikma, innovatsion boshqaruv.

Respublikadagi shiddatli o`zgarishlar ta`lim tizimiga ham jahon miqyosida keng yo`l ochib bermoqda, jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, global telekommunikasion texnologiyalarning takomillashib borishi elektron ta`lim muhitida insonni ishga bo`lgan munosabatini kreativ yondashuvini talab etmoqda.

Jahon miqyosida pedagog kadrlarining ijodiy salohiyati, texnologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va dasturlari orqali o`qitishning innovatsion texnologiyalardan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini hamda ta`lim mazmuniga mos o`qitishning zamonaviy o`quv-uslubiy ta`minotini ishlab chiqish, o`quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotida ro`y berayotgan o`zgarishlar iqtisodiy munosabatlar vajamiyattaraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichga o`tayotgan bir paytda tadqiqotchilarbujarayonlarning turli jihatlarini o`rganishga harakat qilishmoqda. Shundan kelib chiqqanholda, turli adabiyotlarda «innovatsion iqtisodiyot», «bilimlar iqtisodiyoti», «raqamli ta`lim», «axborotlashgan ta`lim», «raqamlashtirilgan ta`lim muhiti» kabi atamalar, jahonhamjamiyatiijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichini ifodalovchi atamalar sifatida ishlatilib kelinmoqda.

Shu bilan birga zamonaviy raqamli texnologiyalarini pedagogik ta`limjarayonlarigajoriy etish; talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati; maqbul qaror qabul qilishmalakasi; kommunikativ kompetentlik; estetik kompetentlik; kasbiy kompetentlik; axborotiste`moli madaniyatini rivojlantirishni ta`minlaydi.

Ta`lim jarayonini modernizatsiya qilish, birinchidan ta`lim mazmunini zamontalablarigamoslashtirishni, ikkinchidan, ta`lim mazmunini o`zlashtirishda pedagogik texnologiyalarniqo`llashni taqozo qiladi. Pedagogik texnologiya - bu o`qituvchi mahoratiga bog`liq bo`lmagan holdapedagogikmuvaaffaqiyatni

kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir.(V.Bespalko).

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish va kasbiy pedagogik ijodiyotni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim usullari, ta'lim shakllari, vositalari, o'yin texnikasi, muammoli ta'lim, ayniqsa, mustaqil ta'limning noan'anaviy jihatlari, usullari muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda ta'lim oluvchilarni "o'qitish" (do teach) jarayoni emas, balki "ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish" (do educate) jarayonida bilim, ko'nikma, malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan

Demak, pedagogik texnologiya pedagogning ta'lim jarayonida ta'limvositalariyordamida ta'lim oluvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsulifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, desak to'g'ri bo'ladi.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalarni qo'llashda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

- Ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganlik, ya'ni ta'lim jarayonini ta'limoluvchiningqiziqishi, individual xususiyatlari, bilim olish imkoniyatlariga muvofiq olibborish;

- Ta'lim jarayonini demokratlashtirish, ya'ni ta'lim jarayonini tashkil etishvauni olibborishda pedagog va ta'lim oluvchining teng huquqliligini ta'minlash;

- Ta'lim jarayonini axborot- kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish,ya'nita'lim oluvchilarga axborot uzatishning eng samarali vositalari hisoblangan virtual ma'ruza,virtual tajriba stendlarini yaratish va ulardan auditoriya mashg'ulotlarida vata'limoluvchilarning mustaqil ishlarida erkin foydalanishni ta'minlash.

- Ilmiy tadqiqot orqali bilim olish, ya'ni ta'lim oluvchilarning yakuniy xulosa, tushuncha,qonun-qoidalarni o'zlari mustaqil ilmiy tadqiqot natijasida keltirib chiqarishlariga erishish. Pedagogik texnologiyadan unumli foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini puxtatashkilqilgan pedagog faoliyatida quyidagi bir qator yangilliklarni kuzatish mumkin

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflayn o'qish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab elektron ta'lim olish imkonini beruvchi juda ko'plab elektron ta'lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta'lim olishning eng afzal tomoni ta'lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma'ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta'lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta'lim jarayonida qo'llashning ikkita zaruriy sharti mavjud:

- texnik jihozlar bilan taminlanganlik;



jihtadan ta'kidlaydi. ob'ektiv dunyoda fazo-zamon xususiyatlari va xususiyatlari, vizual diqqat va vizual xotira rivojlanadi

Bunday dasturlardan foydalanish nafaqat bilimlarni boyitish, foydalanuvchining o'z tajribasidan tashqarida bo'lgan narsa va hodisalar bilan to'liqroq tanishish uchun kompyuterdan foydalanish, balki foydalanuvchining ijodiy qobiliyatini oshirish imkonini beradi; monitor ekranidagi belgilar bilan ishlash qobiliyati vizual-majoziy fikrlashdan mavhum fikrlashga o'tishni optimallashtirishga yordam beradi; ijodiy va yo'naltiruvchi o'yinlardan foydalanish o'quv faoliyatini shakllantirishda qo'shimcha motivatsiya yaratadi; kompyuter bilan individual ishlash bola mustaqil ravishda hal qila oladigan vaziyatlar sonini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng ko'lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:

- o'quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor-o'qituvchilar tomonidan qidirib
- topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;
- elektron o'quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o'zgartirishni tezlashtirilishi;
- talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun qo'shimcha vaqtning ajratilishi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida qo'llashning istiqbollari bo'lib multimedia-texnologiyalar asosida interaktiv ma'ruzalarni tashkil qilish hisoblanadi.

Ananaviy ma'ruzalar o'qishga nisbatan interaktiv ma'ruzalarda talabalar o'qitish jarayoniga faol aralashishlari mumkin bo'lib, unda o'quv materialining turli joyidan savollar berib, aniq javoblar olish imkoniga ega bo'ladilar.

Multimedia-texnologiyalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy dasturiy texnik vositalarining mujassamlanishi talabalarning, ya'ni audioaxborot (ovoz), videoaxborot va animasiya (multiplikasiya, «tirik video») ko'rinishdagi axborotlarni turli xis etuvchi organlari tomonidan qabul qilish darajasini yuksaltirilishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyadan ta'lim jarayonida oqilona foydalanish ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga, davlat ta'lim standartlaridavamalaka talablarida belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirilishiga hamdata'limjarayonida kasbiy kompetentlikka ega mutaxassisni shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Jalilov Sh. Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish. Directory indexing of International Research Journals- CiteFactor. 2020
2. D.Dauletnazarova. Pedagogika fanini rivojlantirishda zamovaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni. Academic Research in Educational Sciences. Nukus, 2021

